

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni-birlikda

61



2



11



2023-yil yanvar-avgust holatiga


- To‘g’ridan to‘g’ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Boshqarmaning elektron pochtasi orqali kelib tushqan murojaatlar
- Boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagи og‘zaki murojaatlar

Viloyat statistika boshqarmasiga 2023-yilning yanvar-avgust holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **74 ta** (o‘tgan yilning shu davrida **72 ta**) murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **61 tasi** to‘g’ridan to‘g’ri kelib tushgan yozma murojaatlar, **11 tasi** boshqarma rahbariyatining shaxsiy va sayyor qabuldagи og‘zaki murojaatlar, **2 tasi** boshqarmaning elektron orqali kelib tushgan murojaatlar hisoblanadi.

## *Murojaatlar: (mazmun-mohiyati bo'yicha)*

### Ulushi-foizda




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, 20 tasi (jamiga nisbatan 27,0 foiz) Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar taqdim etish yuzasidan, 5 tasi (6,8 foiz) nafaqa hujjalari rasmiylashtirish uchun ish stoji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini taqdim etish yuzasidan, 1 tasi (1,4 foiz) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish yuzasidan, 17 tasi (23,0 foiz) topshirilgan hisobotidan nusxa so'rab hamda hisobotini qayta topshirish yuzasidan, 31 tasi (41,9 foiz) boshqa masalalar yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tashkil qilgan.

- Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasidan ma'lumotlar berish
- Nafaqa hujjalari rasmiylashtirish uchun ish stoji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish
- Statistikka hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berish
- Topshirilgan hisobotidan ma'lumotlarni olish
- Boshqa murojaatlar

## Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


### Soni-birlikda



Viloyat statistika boshqarmasiga asosiy qismi Namangan shahridan **35** ta (o'tgan yilning shu davrida **25** ta) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Mingbuloq tumanidan **3** ta, Kosonsoy tumanidan **4** ta, Namangan tumanidan **2** ta, Norin tumanidan **3** ta, Pop tumanidan **2** ta, To'raqo'rg'on tumanidan **3** ta, Uychi tumanidan **10** ta, Uchqo'rg'on tumanidan **1** ta, Chust tumanidan **2** ta, Davlatobod tumanidan **7** ta, Yangi Namangan tumanidan **1** ta hamda boshqa viloyatlardan **1** ta murojaatlar kelib tushgan.


## ***Murojaatlarni ko'rib chiqish holati***

**Soni-birlikda**



Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning **63** tasiga chora ko'rildi, **11** tasi tushuntirildi, ko'rib chiqish jarayonida hamda rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## ***Murojaatlar turlari bo'yicha***



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **29,7** foizi (22 ta) jismoniy shaxslar va **70,3** foizi (52 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

## *Eslatib o'tamiz:*

O‘z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog‘liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xoxlaysizmi, quyidagi,

- Ishonch telefonlari
- (0369)227-85-06

- Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish
- (0369)227-85-08

- Pochta manzili – [namstat@umail.uz](mailto:namstat@umail.uz) elektron manziliga murojaat etishingiz mumkin.

### Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi  
Nashr uchun mas`ul:

E. Mamatqosimov  
(0369) 227-85-06